O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ Z.E. Chorshanbiyev
“____” _____ 2026 yil

Irrigatsiya muhandisligi fakulteti
60811300-Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun
Yakuniy davlat attestatsiya savollari

DASTURI

Qarshi davlat texnika universiteti
Kengashi yig‘ilishining 24.02 2026 yil
7 -sonli majlisida tasdiqlangan.

Qarshi – 2026

2025/2026-o‘quv yilida Irrigatsiya muhandisligi fakulteti 60811300-Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun Yakuniy Davlat Attestatsiya savollari belgilangan talablar asosida mazkur ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga asosan o‘zlashtirgan fanlarning bo‘limlariga mos ravishda tuzildi.

Tuzuvchilar:

1. **“Meva-sabzavotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi”:**
   F.M.Saydalov
2. **“Paxta xom-ashyosini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi”:**
   T.T.Rajabov
3. **“Donni salqash va qayta ishlash texnologiyasi” fani bo‘yicha:**
   R.Ch.Ishmuhamedov a
4. **“Sut va go‘sht mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi” fani bo‘yicha:**
   X.I.Saidmurodov
5. **“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlari va apparatlari” fani bo‘yic ha:**
   D.M.Oripov
6. **“Mevachilik va sabzavotchilik” fani bo‘yic ha:**
   N.N.Shabarova
7. **“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash omborlari” fani bo‘yic ha:**
   N.Ch.Erkayeva

Ushbu dasturi “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi” kafedrasi (Bayoni №13, “21” 02 2026-y.), Irrigatsiya muhandisligi fakulteti Uslubiy komissiyasi (Bayoni №7, “23” 02 2026-y.) va universitet Uslubiy kengashi (Bayoni №7, “25” 02 2026-y.) tomonidan muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan.

O‘QUV-USLUBIY BOSHQARMA

“Irrigatsiya muhandisligi”
fakulteti dekani: **D.A.Quvvatov**

“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va
qayta ishlash texnologiyasi” kafedrasi mudiri **J.J.Allayarov**

Qarshi davlat texnika Irrigatsiya muhandisligi fakulteti 60811300-Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun Yakuniy daviat attestatsiya savollari

1. “Meva-sabzavotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi” fanidan YaDAK savollari

1. 1 kg xom ashyoni yuvish uchun necha litr suv sarflanadi?
2. 100 t uyumni yopush uchun qancha poxol va qamish kerak bo‘ladi?
3. 3-sonli qutiga necha kg urug‘li mevalar joylanadi?
4. Abioz nechta guruhga bo‘linadi?
5. Achchiq qalampir, lavlagi va piyozni tuzlashda nomakob qanday konsentratsiyali bo‘ladi?
6. Achchiq tomat sousi tarkibida qancha quriq modda miqdori bor?
7. Alkogoletsenoanabioz nima?
8. Anestezik moddalar qo‘llab saqlash qaysi usulga kiradi?
9. Anoksianabioz nima?
10. Atsidoanabioz nima?
11. Atsidotsenoanabioz nima?
12. Bioz nechta guruhga bo‘linadi?
13. Bodiringni saqlashda optimal havo harorati va nisbiy namligi qanday bo‘ladi?
14. Bodring necha gradus haroratda saqlanadi?
15. Bodringni sirkalashdagi zarur marinadda tuz va sirka miqdori qanday bo‘ladi?
16. Bug‘latish apparatida qo‘llaniladigan issiqlik tashuvchini ko‘rsating
17. Bug‘latish apparatidan chiqqan sharbat qaysi uskunaga uzatiladi
18. Bug‘latish apparatidan chiqqan sharbatni quruqlik miqdori qancha bo‘ladi?
19. Bug‘latish apparatiga qo‘llaniladigan ikkilamchi bug‘ nima?
20. Bug‘latish apparatiga qo‘llaniladigan ikkilamchi bug‘ nima?
21. Bug‘latish jarayoning maqsadi nima?
22. Doimiy omborlarda sabzavotlar qatlamlari bo‘yicha shamollatish va sovutish qanday amalga oshiriladi?
23. Doimiy omboxona sig‘imi jixatidan necha xil bo‘ladi?
24. Doira shaklida kesilgan olmalarni bir kvm foydali maydonga necha kg ho‘l mevalar ketadi?
25. Eksgausterlash jarayoni bu -?
26. Eubioz nima?
27. Faol shamolatiladigan omborlarning foydalanish koeffitsenti razmeri qanday bo‘ladi?
28. Fermentlar uchun optimal harorat qancha?
29. Filtrlashdan o‘tgan sharbat qaysi uskunaga o‘tadi?
30. Fiobafenlar nima sababdan hosil bo‘ladi?
31. Garimdori, lavlagi, piyozni tuzlashda namokob quvvati qanday bo‘ladi (%)?
32. Gemibioz nima?
33. Gidravlik transportyorda suv oqimining tezligi qancha bo‘lishi kerak?

34.Havoning namligi necha foizdan oshgandan so‘ng piyozning tinim davri tugab, o‘sa boshlaydi?
35.Iste’molchilarning mahsulot sifatiga bergan baholarini yig‘ish va bildirilgan fikrlarni tahlil qilish asosida uning sifatiga baho berish qaysi usul hisoblanadi?
36.Karamning o‘rtacha hajm og‘irligi qancha?
37.Kartoshka oziq-ovqat maqsadida qanday idishlarda yaxshi saqlanadi?
38.Kartoshka tarkibida 85% suv bo‘lsa uni issiqlik sig‘imi nechaga teng bo‘ladi? (kkal/t)
39.Kartoshka tukanaklaridan necha foizgacha kraxmal olinadi?
40.Kartoshka uchun 450 kg hajmli konteyner razmeri qanday bo‘ladi?
41.Kartoshka va boshqalarni uyum qilib saqlashda ularning tabiiy qiyaligi qancha bo‘lishi kerak?
42.Kartoshkani oziq-ovqat maqsadida qishda saqlashda havoning optimal harorati va nisbiy namligi qanday bo‘ladi? (, %)
43.Kartoshkani qanday o‘lchamdagi uyumlarda saqlanadi?
44.Kartoshkaning po‘stida qanday zaxarli modda bor?
45.Katta omborxonalarning sig‘imi necha tonnagacha bo‘ladi?
46.Kesilgan 1 kg olmani dudlatish uchun necha gr oltingugurt ishlatiladi?
47.Ko‘k nuxotni blanshirlash maqsadlariga nimalar kirmaydi?
48.Ko‘k nuxotni yuvish mashinasi qaysi?
49.Konservalarni saqlashdagi havoning optimal harorati va nisbiy namligi qanday bo‘ladi? (, %)
50.Konservalarning necha buzilish turlarini bilasiz?
51.Krioanabioz nima?
52.Kseroanabioz nima?
53.Lavlagining hajmiy og‘irligini ko‘rsating?
54.Limon mevalari tarkibidagi o‘rtacha vitamin “S” miqdori qanday mg/%?
55.Mahsulot tarkibidan havoni chiqarish jarayoni nima deyiladi?
56.Mahsulotda kislotali muhitni kislota yordamida yaratib saqlash qaysi usulga kiradi?
57.Mahsulotda kislotali muhitni ma’lum toifadagi mikroorganizmlar yordamida vujudga keltirib saqlash qaysi usulga kiradi?
58.Mahsulotlar fiziologik usulda nazorat qilinganda qaysi ko‘rsatkichlar aniqlanadi?
59.Mahsulotlar sifatini iqtisodiy jixatdan baholaydigan ko‘rsatkichlarga qaysi ko‘rsatkichlar kiradi?
60.Mahsulotlarni chirigan va kasallanganlaridan tozalash nima deyiladi?
61.Mahsulotlarni hisoblash usuli nimaga asoslangan?
62.Mahsulotlarni kimyoviy nazorat qilishda qaysi ko‘rsatkichlar aniqlanadi?
63.Mahsulotlarni muntazam ravishda kuzatish, hodisalarni, buyumlarni va harajatlarni hisobga olish qaysi usulning asosi hisoblanadi?
64.Mahsulotlarni naviga qarab ajratish nima deyiladi?
65.Mahsulotlarni o‘lchamlariga qarab saralash nima deyiladi?
66.Mahsulotlarni organoliptik usulda nazorat qilish nimaga asoslangan?
67.Mahsulotlarni osmotik bosimini ko‘tarib saqlash qaysi usulga kiradi?

68.Mahsulotlarni qayd qilish usuli nimaga asoslangan?
69.Mahsulotlarni sortlarga ajratishda lentali transportyorning tezligi qancha bo‘lishi kerak? (m/s)
70.Mahsulotlarni sotsiologik nazorat qilish usuli nimaga asoslangan?
71.Mahsulotlarni sovuqda yoki muzlatilgan holda saqlash qaysi usulga kiradi?
72.Mahsulotlarning biologik qimmati nima bilan belgilanadi?
73.Mahsulotlarning energetik qimmati nima bilan belgilanadi?
74.Mahsulotlarning oziq-ovqatlik qimmati nima bilan belgilanadi?
75.Mahsulotlarning sifatini nazorat qilishda qo‘llaniladigan o‘lchash vositalariga qarab nazorat turlari necha xil bo‘ladi?
76.Mahsulotni aseptik usulda konservalash uchun uning harorati qancha bo‘lishi kerak?
77.Mahsulotni o‘lchamlari bo‘yicha saralash jarayoni nima deyiladi?
78.Mahsulotni qisman yoki umuman quritib saqlash qaysi usulga kiradi?
79.Mahsulotning sifatini obyektiv usullarda aniqlash qiyin bo‘lgan taqdirda qaysi usuldan foydalaniladi?
80.Malina tarkibida qanday miqdorda umumiy kislota bo‘ladi?
81.Mandarinni saqlashda optimal havo harorati va nisbiy namligi qanday bo‘ladi?
82.Melanoidin reaksiyalar bu…?
83.Meva etining qattiqlik darajasi qaysi asbob yordamida aniqlanadi?
84.Meva sabzavotlar saqlashdagi eng muxim fiziologik jarayon nima?
85.Meva va sabzavot omborlari saqlash usuliga qarab necha guruhga bo‘linadi?
86.Meva va sabzavotlar hosili yig‘ishtirib olingandan keyin biologik xossalariga ko‘ra saqlashga chidamliligini belgilaydigan asosiy xususiyatlariga qarab necha guruhga bo‘linadi?
87.Meva va sabzavotlarni barra holida saqlash qaysi usulga kiradi?
88.Meva va sabzavotlarni gaz muhitini boshqarib saqlash usuli gazning tarkibiga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?
89.Meva va sabzavotlarni ma’lum vaqt davomida sifatini pasaytirmasdan va og‘irligini minimal darajada yo‘qotib saqlanish xususiyati ularning nimasini belgilaydi?
90.Meva va sabzavotlarni qisqa muddatga qaynab turgan suv yoki bug‘ bilan ishlash nima deyiladi?
91.Meva va sabzavotlarni saqlashga chidamliligini ma’lum mintaqa va faslda hamda agrotexnik, texnologik rejimda namoyon bo‘lishi nima deb ataladi?
92.Meva va sabzavotlarning 1 uyumidagi teshiklarining miqdori uning nimasi deb yuritiladi?
93.Meva va sabzavotlarning mikroorganizmlar bilan zararlanishiga qarshilik ko‘rsatish xususiyati nima deb ataladi?
94.Meva va sabzavotlarning to‘qimalari qaysi xo‘jayralardan iborat?
95.Mevalar orasiga solinadigan qirindining namligi necha foizdan oshmasligi lozim?
96.Mevalar tarkibida ekstraktiv moddalarni saqlash uchun ular qanday blanshirlanadi?
97.Mevalardan sharbat ajratish uchun elektr tok ta’sir qilish jarayoni nima deyiladi?

98.Mevalarni boshaqariladigan gaz muhitida saqlashda qanday solishtirma nisbati yaxshi hisoblanadi?
99.Mevalarning chirish kasalligini qaysi zamburug‘ keltirib chiqaradi?
100.Mevalarning shirinligi quyidagilarning qaysi biriga bog‘liq?
101.Muzlatilgan meva-sabzavotlar sovutgichlarda qanday haroratlarda saqlanadi?
102.Narkoanabioz nima?
103.Nima sababdan chuchuk qalampir blanshirlanadi?
104.Nordon marinad aralashmasi tayyorlashda necha foiz sirka kislotasi ishlatiladi?
105.O‘rik necha gradius haroratda saqlanadi?
106.O‘rikning qaysi navidan turshak olinadi?
107.O‘rta hajmdagi yangi bodringlarni tuzlashda ishlatiladigan namokob miqdori necha foizni tashkil etadi?
108.O‘simlik xom ashyosini saqlashda qand miqdorining pasayishiga olib keladigan asosiy sabab nima?
109.Objush usulida uzum necha kun quritiladi?
110.Obyektga qo‘yiladigan va vakolatli tashkilot tomonidan tasdiqlangan meyorlar, qoidalar, talablarni belgilovchi meyoriy-texnik hujjat nima deyiladi?
111.Olmani namlash (tuzlash) uchunnecha foiz solod ishlatiladi?
112.Olmaning sovuqqa chidamli navlari necha gradius haroratda saqlanadi?
113.Olmaning sovuqqa chidamsiz navlari necha gradius haroratda saqlanadi?
114.Oltin rang sabza mayizi olish uchun uzumni qanday quritish usuli qo‘llaniladi?
115.Olxo‘rini sovutgich - omborlarida saqlash muddati (oy)?
116.Omborxonaning chuqurligini belgilashda yer osti suvlari hisobga olinadi. Bunda yer osti suvlari qanday masofada bo‘lishi kerak?
117.Oqsillar nima ta’sirida parchalanadi?
118.Osmoanabioz nima?
119.Pamidorning tarkibida 86 % suv bo‘lsa, uning issiqlik sig‘imi nechaga teng bo‘ladi?
120.Petrushka barglarida qancha vitamin «S» miqdori mavjud?
121.Petrushka necha yillik osimlik?
122.Piyoz boshi qanday haroratda muzlaydi?
123.Piyozni o‘rtacha hajm og‘irligi qancha bo‘ladi ()?
124.Piyozning hajmini ko‘rsating, kg/m^3?
125.Pomidor - pyuresida qancha foiz quruq modda bo‘ladi?
126.Pomidor sharbati konsistensiyasini yaxshilash uchun o‘tkaziladigan texnologik jarayon nima deyiladi?
127.Pomidor sharbati saqlash davrida qavatlarga ajralishi nimaga bog‘liq?
128.Pomidor yorilmasligi uchun tabiiy konservalarga nima qo‘shiladi?
129.Pomidorni issiqlik yordamida po‘stidan tozalash jarayoni nimaga asoslangan?
130.Pomidorni xom ashyo maydonchasida saqlash muddati qancha?
131.Pomidorni yuvish uchun qo‘llaniladigan uskuna nima deyiladi?
132.Professor Y.Y. Nikitinskiy qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlashning biologik asoslariga tayanib, saqlash usullarini nechta toifaga bo‘ladi?
133.Protopektin nima ta’sirida parchalanadi?

134.Psixroanabioz nima?
135.Qadoqlash jarayoni nima deyiladi?
136.Qalampir tarkibidagi vitaminlarni saqlash uchun qanday choralar ko‘riladi?
137.Qalampirda o‘rtacha «S» vitamin miqdorini aniqlang, mg/%?
138.Qanday buzulgan konservalar iste’mol uchun yaroqsiz hisoblanadi?
139.Qanday hajmdagi omborlar kichik hisoblanadi (tonna)?
140.Qanday haroratda kartoshka tuganaklari muzlaydi?
141.Qanday haroratda olma mevalari muzlaydi?
142.Qaysi rezavor mevalarda umumiy kislota miqdori ko‘p bo‘ladi?
143.Qaysi sabzavot turi efir moylariga boy?
144.Qaysi usul konservalashning mikrobiologik turiga kiradi?
145.Qaysi usulda mahsulotlarni saqlashda tirik organizmlar ishtirok etmasligi kerak?
146.Qayta ishlash uchun ishlatiladigan ko‘k nuxatning yetilish darajasi qanday bo‘lishi kerak?
147.Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlashning biologik asoslariga tayanib, saqlash usullarni nechaga bo‘lish mumkin?
148.Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sifat ko‘rsatkichlariga qarab necha guruhga bo‘linadi?
149.Qizdirish jarayonida shakarlarning o‘zgarishi nima deyiladi?
150.Qovunni saqlashga qo‘yishdan oldin dalada necha kun so‘litiladi?
151.Qulupnay mevasidan murabbo tayyorlashda qiyom quvvati qanday bo‘ladi (%)?
152.Qulupnay tarkibidagi organik kislota va qandning miqdori qancha?
153.Quritilgan mahsulotlarda necha foizgacha namlik bo‘lishi kerak?
154.Quritilgan uzumdan oltin rang sabza olish uchun qanday usul qo‘llaniladi?
155.Quyoshli havoda uzum necha kun quritiladi?
156.Quyuqlashtirilgan sharbatlarni tayyorlash usullari necha xil bo‘ladi?
157.Sabzi tarkibida o‘rtacha vitamin «S» miqdorini aniqlang, mg/%?
158.Sabzi tarkibidagi qand miqdori qancha (%) bo‘ladi?
159.Sabzini o‘rtacha hajm og‘irligi qancha, ?
160.Senoanabioz nechta guruhga bo‘linadi?
161.Shaftoli po‘stidan tozalash usulini ko‘rsating.
162.Shaftoli sovutgich - omborlarda qanday haroratda saqlanadi?
163.Solanin moddasi asosan qayerda uchraydi?
164.Tabiiy konservalarni ishlab chiqarishda qaysi texnologik jarayonlar qo‘llanilmaydi?
165.Tabiiy shamolatiladigan omborlarning foydalanish koeffitsenti qanday?
166.Tabiiy ventilyatsiya yordamida omborxonalar shamollatilganda havo nima yordamida harakatlanadi?
167.Tayyor mahsulotlarning asosiy sifat ko‘rsatkichi
168.Tayyor mahsulotning nordonligi qaysi ko‘rsatkich orqali aniqlanadi?
169.Tayyor tomat pastaning rangi nimaga bog‘liq?
170.Tayyorlash kondensiyasi nechta guruhga bo‘linadi?
171.Termosterilizatsiya nima?

172.Tirik hayvonlar, qushlarni va tirik jonivorlarni ushlab turish va tashish qaysi usulga kiradi?
173.Tomat - pyureda necha foiz quruq modda bo‘ladi?
174.Tomat pasta ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirish uchun nima qilinadi?
175.Tomat pastani aseptik usulda konservalash uchun tayyor mahsulotga nima qo‘shiladi?
176.Tomat pastani bochkalarda saqlash uchun nima qo‘shiladi?
177.Tomat sharbati tarkibida qancha quriq modda miqdori bor (%)?
178.Tomat xalimi (pasta) tarkibida qancha quruq modda miqdori bor (%)?
179.Tozalanmagan olma mevalardan quritilgan mahsulotni chiqish miqdori qancha (%)?
180.Turshak o‘rikning qaysi navidan olinadi?
181.Tuzlangan bodringni birinchi nav mahsulotida necha foiz tuz va nordonlik bo‘ladi(%)?
182.Tuzlangan karam necha kundan keyin iste’molga tayyor bo‘ladi?
183.Tuzlangan mahsulotlarni saqlashdagi optimal harorat qancha bo‘lishi kerak?
184.Urug‘li mevalardan tayyorlangan murabbo uchun qiyom quvvati qanday bo‘ladi?
185.Uzum mevalari qanday haroratda muzlaydi?
186.Uzum mevalarida qanday miqdorda vitamin «S» bo‘ladi (mg/%)?
187.Uzum objush usulida necha kun quritiladi?
188.Uzum tarkibida qancha organik kislota va qand miqdori bor (%)?
189.Uzum, olma, nok, o‘rik mevalaridan kompot olishda qand qiyomining qanday quvvati ishlatiladi (%)?
190.Uzumdan o‘rtacha qancha quritilgan mahsulot olinadi?
191.Uzumni oftobli havoda quritish muddati?
192.Uzumni quritishga tayyorlashda uni botirib olish uchun suvning kaustik soda issiq aralashmasi quvvati qanday bo‘ldai (%)?
193.Uzumning qaysi navidan sabza mahsuloti olinadi?
194.Uzumning qora kishmish navini ishqorning kuchsiz aralashmasida quritiladigan mahsulot qanday nomlanadi?
195.Vakuum bug‘latish apparatlarida II va III-korpuslar qanday isitiladi?
196.Xandak va uyumlar qanday tuproq qalinligida ko‘miladi (sm)?
197.Xandak va uyumlarda qanday shamollatish usuli keng qo‘llaniladi?
198.Xren ildizi tarkibida vitamin «S» qancha miqdorda mavjud mg/%?
199.Yangi uzib keltirilgan mevalarning yetilishi mobaynida nafas olishi tezlashadigan davr nima deb ataladi?
200.Yer tuti murabbosi uchun qanday konsentratsiyali qiyom tayyorlanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Gazeta.uz. 2022y.
2. Shaumarov X.B., Islamov S.Y. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi. - T.: ToshDAU, 2011.
3. Abdikayumov Z.A., Azizov A, Xalmirzayev D., Ochilov M. Ildizmevalilarni saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi. - T.: ToshDAU, 2015.
4. Bo‘riyev X.Ch., Rizaev R. Meva-uzum mahsulotlarni biokimyosi va texnologiyasi. T., “Mehnat”, 2000.
5. Bo‘riyev X.Ch., Jo‘raev R., Alimov O. Meva-sabzavotlarni saqlash va daslabki ishlov berish. T., “Mehnat”, 2002.
6. Bo‘riyev X.CH., Jo‘rayev R., Alimov O. Don mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlov berish (amaliy mashg‘ulotlar). - T.: ToshDAU, 2002.
7. Bo‘riyev X.Ch., Juraev R., Alimov O. Meva-sabzavotlarni saqlash va ularga dastlabki ishlov berish (o‘quv qo‘llanma). T., 2003.
8. Bo‘riyev X.CH., Jo‘rayev R., Alimov O. Dala ekinlari mahsulotlarini saqlash va ularga dastlabki ishlov berish. - T.: O‘zME., 2004
9. Бузетти К.Д., Кавеский Г.Д. Технология сушки. -М.:Колос, 2012.
10. Кац З.А. Производство сушенных овощей, картофеля и фруктов. — М.: Легкая и пищевая промышленность. 1984 г.
11. Oripov R., Sulaymanov I., Umirzoqov E. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi. T., Mehnat, 1991.
12. Saydalov F.M. Meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi. – Qarshi, 2026.
13. Семёнов Г.В., Касьянов Г.И., Сушка сырья: мясо, рыба, овощей, фруктов, молоко. - Ростов н/д: Издательский центр “Март”, 2002.
14. Технология переработки продукции растениеводства. Коллектив авторов. Под ред. Н.М. Личко. М., “Колос”, 2004
15. Трисвятский Л.А. Практикум по хранению и переработке сельскохозяственных продуктов, М.: Колос, 1981 г.
16. Широков Э.П., Полегаев В. Технология хранения и переработки продукции растениеводства с основами стандартизации. М., Агропромиздат, 2000.

Elektron resurslar:

http//www.gov.uz O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali
http//www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumoti milliy bazasi
http//www.koloss.ru/pub CatView.asp.Catid=10722/
http://www.bankreferatov.ru/db/M/BF6AFEF55072EA6C3256F71003DC544/
http://www.tashkent.marketcenter.ru/contant/doc-0-2031.html/
http://mshp.minsk.by/education/vchebno-metodicheskiy_center/umd/prog/1-74%2006% 2002/index.htm/
http://www.rambler.ru
www.google.com
www.Ziyonet.net

2. "Paxta xom-ashyosini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" fanidan YaDAK savollari

1. 1-sort pishgan tolaning uzilish kuchi qancha bo'ladi?
2. 1000 dona chigitning og'irligi nimani ifodalaydi?
3. 12% namlikdagi paxta xom ashyosini quritishda quritish agentining harorati necha gradus bo'lishi kerak?
4. 14% namlikdagi paxta xom ashyosini quritishda quritish agentining harorati necha gradus bo'lishi kerak?
5. 18% namlikdagi paxta xom ashyosini quritishda quritish agentining harorati necha gradus bo'lishi kerak?
6. 1t chigitli paxtadan necha kg tola chiqadi?
7. 2-sinf (III sortli) mashinada terilgan paxtaning iflosligi,%?
8. 4-sort texnik chigitning namligi qancha bo'lishi kerak?
9. Arrali jinlar o'rnatilgan bir batareyali zavodlarda nechta jin bo'ladi?
10. Arrali jinlar o'rnatilgan ikki batareyali zavodlarda nechta jin bo'ladi?
11. Baholanayotgan mahsluotning kompleks sifatiga qarab baholash....?
12. Bazislik namlik deganda nimani tushunasiz?
13. Bir kun davomida har bir jamlangan tudalar uchun alohida o'rtacha bir kunlik namuna kamida necha kg bo'lishi kerak?
14. Bir kunda bitta g'aramga necha tonna paxta shibbalanishi kerak?
15. Bir kunda bitta maydonga necha tonnadan ortiq paxta bosish tavsiya etilmaydi?
16. Bir mavsumda paxta tayyorlash punkti necha tonnagacha paxtani qabul qiladi?
17. Bir tonna chigitdan necha kg kunjara olinadi?
18. Bir tonna chigitdan necha kg momiq olinadi?
19. Bir tonna chigitdan necha kg sheluxa olinadi?
20. Bir tonna chigitdan necha kg yog' olinadi?
21. Bir tonna paxtadan necha kg tola olinadi?
22. Birinchi sort paxtada tolaning uzilish kuchi qancha?
23. Bitta g'aramga paxta joylashtirishni necha kunda amalga oshirish kerak?
24. Chegaralangan namlik deganda nimani tushunasiz?
25. Chigitda kolgan tolalarni va tuklarni ajratish nima deb ataladi.
26. Chigitdan tolani ajratib olish nima deb ataladi.
27. Chigitli paxta sorti qanday aniqlanadi?
28. Chigitli paxtadan namuna olish tartibi qanday?
29. Chigitli paxtani jinlagandan so'ng ingichka tolali paxta chigitlarida qancha miqdorda lint va delint qoladi?
30. Chigitli paxtani jinlagandan so'ng o'rta tolali paxta chigitlarida qancha miqdorda lint va delint qoladi?
31. Chigitli paxtani qabul qilish punktida ikkinchi zonaning vazifasi nimadan iborat?
32. Chigitli paxtani qabul qilish punktida uchinchi zonaning vazifasi nimadan iborat?
33. Chigitli paxtani qabul qilish punktlarining sig'imi o'rtacha qancha bo'lishi kerak?
34. Chigitli paxtani quritishda texnik chig'itlarni necha gradusgacha qizdirish mumkin.
35. Chigitli paxtani quritishda tolani necha gradusgacha qizdirish mumkin.

36. Chigitli paxtani quritishda urug'lik chigitlarni necha gradusgacha qizdirish mumkin.
37. Chigitli paxtani saqlashda uning namligi 13-14% dan yuqori bo'lganda qanday holat kuzatiladi?
38. Chigitli paxtani yopiq omborlarda saqlash vaqtida, namligi 11% gacha bo'lgan paxta uchun uning o'rtacha zichligi qancha bo'lishi kerak?
39. Chigitli paxtani yopiq omborlarda saqlash vaqtida, namligi 14% gacha bo'lgan paxta uchun uning o'rtacha zichligi qancha bo'lishi kerak?
40. Chigitli paxtaning ifloslik yoki namlik me'yori 22 % dan oshib ketsa qanday yo'l tutiladi?
41. Chigitli paxtaning necha foyizini chigit tashkil qiladi.
42. Chigitning elita navlarini saqlash joylari?
43. Davlat standarti bo'yicha erdan ifloslik terilgan III sinf V sort paxtaning me'yori?
44. Davlat standarti boyicha qo'lda terilgan I sinf IV sort paxtaning namligi?
45. Davlat standartlari boyicha qo'lda terilgan paxtani (I sinfi) nechta navga (sortga) bo'linadi?
46. Defoliatsiyani har bir tup g'o'zada nechta ko'sak ochilganda o'tkaziladi?
47. Defoliatsiyani havoning o'rtacha harorati necha gradusda o'tkaziladi?
48. Dunyoda nechta mamlakatda g'o'za yetishtiriladi
49. Elita urug'ini saqlash joylari?
50. Elita urug'lik chigitning nav tozaligi qancha bulishi kerak
51. G'aram ko'tarilgandan so'ng ochiladigan tunnelning boyi necha metr?
52. G'aram ko'tarilgandan so'ng ochiladigan tunnelning eni necha metr?
53. G'aramdagi saqlanayotgan 1 va 2 –sort paxtalar har necha kunda tekshiriladi?
54. G'aramlardagi harorat necha joyda o'lchanadi?
55. G'aramlardagi harorat necha metr chuqurlikda o'lchanadi?
56. G'aramlash maydonchalarining o'lchami qancha bo'ladi?
57. G'o'za bargi necha foyiz to'kilganda mashinada terishni boshlash mumkin?
58. G'o'za havoning harorati yil davomida necha gradusdan past bo'lmaydigan mamlakatlarda paydo bo'lgan?
59. G'o'za naviga qarab o'lik paxta miqdori necha foiz bo'ladi.
60. G'o'za o'z vatanida qanday o'simlik
61. G'o'zaning ko'sagi shakllangandag necha kun o'tgach ochiladi
62. G'o'zaning ko'sagining o'lchamini toping
63. G'o'zaning o'sishi va rivojlanishi uchun eng qulay harorat necha gradus?
64. G'o'zaning quyi va yuqori shoxalardagi ko'saklarning yetilishi o'rtasida qancha vaqt o'tadi.
65. Guza bargini sun'iy tukish nima deb ataladi.
66. Guza tupini sun'iy quritish nima deb ataladi.
67. Har 2 tonna paxtani necha necha gramm namuna olinadi.
68. Har bir chigitni uning tolalari bilan birga qanday nomlanadi?
69. Havo so'rilganda ilgari o'lchangan joylarda har necha soatda nazorat o'lchovi o'tkazib turilishi kerak?
70. I a tip uchun tola shtapel vazn uzunligi, mm?

71. I nav paxta tolasining uzulishi kuchi qancha?
72. I sinf urug'lik chigitning unuvchanligi qancha bulishi kerak
73. I sortli paxtaning rangi va tashqi ko'rinishi?
74. I sortli paxtaning rangi va tashqi ko'rinishi?
75. I-sinf (qo'lda terilgan) I sort (navli) paxta xom ashyosining namligi qancha bo'lishi kerak?.
76. I-sinf (qo'lda terilgan) I sort (navli) paxtaning namligi ?.
77. I-sort chigitning namligi qancha bo'ladi?
78. Ifloslik yoki namlik me'yorlari necha foizdan oshib ketsa, paxta topshiruvchiga qaytariladi?
79. II nav paxta tolasining uzulishi kuchi qancha?
80. II-tip tolani uzunligi?
81. II-tip tolani uzunligi?
82. III nav paxta tolasining uzulishi kuchi qancha?
83. III tipga mansub navlar?
84. Ikkinchi sort paxtada tolaning uzilish kuchi qancha?
85. Ingichka tolali g'o'za navlari tolasining diametri o'rtacha.
86. IV nav paxta tolasining uzulishi kuchi qancha?
87. IV sortli (navli) mashinada terilgan paxtaning iflosligi?
88. IV-tip tolalarga mansub navlar?
89. IV-tip tolaning chiziqli zichligi?
90. Ko'p yillik g'o'zalar poyasining yer betidagi yaqin qismining yug'onligi qancha.
91. Ko'p yillik g'o'zalaming boyi necha metr bo'ladi
92. Ko'sakning har bir chanog'ida nechtadan chigit rivojlanadi?
93. Konditsion urug' deb nimaga aytiladi?
94. Madaniy g'o'zalarda poyasining yer betidagi yaqin qismining yug'onligi qancha.
95. Mamlakatimizda ekiladigan ingichka tolali g'o'za navlarida tola chiqishi qancha
96. Mamlakatimizda ekiladigan o'rta tolali g'o'za navlarida tola chiqishi qancha.
97. Mamlakatimizda ekilayotgan guza navlaring xar 1 mm tolasi necha marta buraladi.
98. Mamlakatimizda ekilayotgan ingichka tolali go'zada tolasining uzunligi qancha?
99. Mamlakatimizda ekilayotgan o'rta tolali go'zada tolasining uzunligi qancha?
100. Mamlakatimizda necha batareyali zavodlar bor?
101. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan ingichka tolali g'o'za navlarida tolaning uzulish kuchi kancha
102. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan ingichka tolali navlarda tola chiqishi miqdori qancha?
103. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan o'rta tolali g'o'za navlarida tolaning uzulish kuchi kancha.
104. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan o'rta tolali navlarda tola chiqishi miqdori qancha?
105. Mashina terimiga go'za bargining kamida necha foiz to'kilganda tushiladi?
106. Mashina terimiga ko'saklarning necha foiz ochilganda tushiladi?
107. Mashinada terilgan 2-sinf (III sortli) paxta xom ashyosining iflosligi,%?

108. Mashinada terilgan 2-sort chigitli paxtaning iflosligi qancha bo'lishi kerak?
109. Mashinada terilgan 2-sort chigitli paxtaning iflosligi qancha bo'lishi kerak?
110. Mashinada terilgan II sinf I sort (navli) paxtaning iflosligi?
111. Mashinada terilgan uruglik paxta chigit-ining shikastlanish darajasi qancha bo'lishi kerak?
112. Model uzunlikdan katta bo'lgan uzunlik guruhlarining o'rtacha qiymati bu....
113. O'rta tolali chigitli paxtani jinlash (tolasini ajratish) uskunalari rusumini aniqlang
114. O'rta tolali g'o'za ko'sagida qancha tola bo'ladi
115. O'rta tolali g'o'za navlari tolasining diametri o'rtacha.
116. O'rta tolali g'o'za navlarida bitta chigitning og'irligi necha mg gacha boradi?
117. O'rta tolali g'o'zalarda tola chiqishi necha foizgacha boradi?
118. O'zbekiston respublikasida paxta urug'chiligi qanday shakllantirilgan?
119. Omborda saqlanadigan namligi 11 % gacha bo'lgan, 1-2 sort paxta garamining zichligi qancha bo'lishi kerak?
120. Paxta gommoz kasaliga chalingan bo'lsa qancha namuna olinadi?
121. Paxta gommoz kasaliga chalingan bo'lsa qanday o'zgarish bo'ladi?
122. Paxta harorati necha gradus bo'lishi normal hisoblanadi?
123. Paxta qabul qilish punkti nechta zonali bo'ladi?
124. Paxta tayyorlash punktlarida chigitli paxtani kim qabul qilib oladi?
125. Paxta tayyorlash punktlarining vazifalari nimadan iborat?
126. Paxta tolaning kimyoviy tarkibidagi sellyuloza necha % bo'ladi?
127. Paxta tolasi dastlabki holatidan qanchagacha cho'zilishi mumkin?
128. Paxta tolasi nechta navga bo'linadi?
129. Paxta tolasi nechta sortga ajratiladi.
130. Paxta tolasi o'rta hisobda necha foizgacha cho'zilish xususiyatiga ega.
131. Paxta tolasidan tayyorlangan matolarni dazmollashda turg'unlik koefitsenti qancha?
132. Paxta tolasining kimyoviy tarkibi qanday moddalardan tashkil topgan?
133. Paxta tolasining kimyoviy tarkibida azot va oqsillar qancha?
134. Paxta tolasining kimyoviy tarkibida moy va mumsimon moddalar qancha?
135. Paxta tolasining kimyoviy tarkibida pektinli moddalar qancha?
136. Paxta tolasining kimyoviy tarkibida tsellyuloza qancha?
137. Paxta tolasining namligi necha foizgacha qo'l bilan paypaslaganida sezilmaydi?
138. Paxta tozalash sanoati yiliga qancha seleksion sortdagi urug'lik chigit tayyorlaydi?
139. Paxta uchun xavfsiz bo'lgan eng katta harorat qancha?
140. Paxta xom ashyosi omborlarida namligi 11 % gacha bo'lgan, 1-2 sort paxta g'aramining zichligi qancha bo'lishi kerak?
141. Paxta xom ashyosi tarkibidagi ifloslik nimalardan iborat?
142. Paxta xom ashyosini saqlashda qish vaqti (davri) uchun qulay issiqlik darajasi?
143. Paxta xom ashyosini tayyorlashda 2-sinf (III sortli) mashinada terilgan paxtaning iflosligi,%?

144. Paxta xom ashyosini tayyorlashda Mashinada terilgan II sinf I sort (navli) paxtaning iflosligi qancha bo'ladi?
145. Paxta xom ashyosini tayyorlashda turkumlashtirilgan paxta g'arami shapkasining balandligi?
146. Paxta xom ashyosini tayyorlashda urug'lik paxtani terish muddatini ko'rsating?
147. Paxta xom ashyosining tolalik darajasini aniqlash uchun qancha namuna olinadi?
148. Paxta zavodi va tayyorlov punktlarida I va II sort paxtalar saqlanadigan g'aramlar har necha kunda tekshirilib turiladi?
149. Paxta zavodi va tayyorlov punktlarida III va IV sort paxtalar saqlanadigan g'aramlar har necha kunda tekshirilib turiladi?
150. Paxtani necha foyiz go'za bargi to'kilganda teriladi?
151. Paxtani necha foyiz go'za bargi to'kilganda teriladi?
152. Paxtani tayyorlash punktlari nechta zonaga bulinadi.
153. Paxtaning I a tip tolasi uchun shtapel vazn uzunligi, mm?
154. Paxtaning elita urug'ini saqlash joylari?
155. Paxtaning har chigitida necha dona tola bo'ladi.
156. Paxtaning harorati 45C ga yetganda, tolasining uzilish kuchi necha marta kamayadi?
157. Paxtaning IV-tip tolasining chiziqli zichligi qancha?
158. Paxtaning necha foyizini chigit tashkil qiladi.
159. Paxtaning rangi buzilmasligi uchun havoni profilaktik tortish muddati qancha soatdan oshmasligi lozim?
160. Paxtaning umumiy yetilish davri uning selektsiya naviga qarab necha kun davom etadi.
161. Presslangan tola zichligi qancha buladi?
162. Qaysi holatda chigitli paxtani qabul qilish ikki oqimda qabul qilinadi?
163. Qo'lda terilgan 1-sort paxtaning iflosligi qancha bo'lishi kerak?
164. Qo'lda terilgan paxta nechta sortga (navga) bo'linadi?
165. R1 urug'lik chigitning nav tozaligi qancha bulishi kerak
166. Saqlanayotgan chigitli paxtaning harorati qayta o'lchangan farq 2-3 ni tashkil etsa qanday chora ko'riladi
167. Saqlanayotgan paxta sifatiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
168. Sentyabr, oktabr oylarida saqlanayotgan chigitli paxta harorati qancha bo'lsa u normal holat bo'ladi?
169. Standart bo'yicha qo'lda terilgan paxtani (I sinfi) nechta navga (sortga) bo'linadi?
170. Standart bo'yicha to'qimachilik sanoati tolalari nechta tipga bo'linadi?
171. Texnik chigitlarni necha gradusda quritiladi?
172. To'rtinchi sort paxtada tolaning uzilish kuchi qancha?
173. Tola ajratish mashinasi (jin) qachon kashf etilgan?
174. Tola necha kunda pishib etiladi?
175. Tolaning asosiy nuqsonlari?
176. Tolaning mikroneyr ko'rsatkichi nimani bildiradi?

177. Tolaning uzilish kuchining uning chiziqli zichligiga nisbati bu....
178. Tuksizlantirilmagan urug'lik chigitlarning fraktsiyasi o'lchamlari boyicha bir tekisliligi necha foizdan kam bo'lmasligi kerak?
179. Turli g'o'za navlarida o'lik paxta miqdori qanchani tashkil etadi?
180. Urug'lik chigitlarni qoldiq tukliligi necha foizdan oshmasligi kerak?
181. Urug'lik chigitning asosiy sifat ko'rsatkichlari bu ....?
182. Urug'lik paxta g'o'za bargining kamida necha foiz to'kilganda tushiladi?
183. Urug'lik paxta mashina terimiga ko'saklarning necha foiz ochilganda tushiladi?
184. Urug'lik paxta mashinada terilganda chigitining shikastlanish darajasi qancha bo'lishi kerak?
185. Urug'lik paxtaning massasiga qarab birinchi reproduksiya urug'laridan qanday tartibda namuna olinadi
186. Urug'lik paxtaning massasiga qarab elita urug'lardan qanday tartibda namuna olinadi?
187. Urug'lik paxtaning massasiga qarab ikkinchi reproduksiya urug'laridan qanday tartibda namuna olinadi
188. Urug'lik paxtaning massasiga qarab uchinchi va undan keyingi reproduksiya urug'laridan qanday tartibda namuna olinadi
189. Uruglik chigitning tola koldiklari kancha bulishi kerak.
190. Uzun tolali g'o'za ko'sagida qancha tola bo'ladi.
191. V-tip tolaga mansub navlarni ko'rsating?
192. V-tip tolaning shtapel uzunligi?
193. V-tip tolaning solishtirma uzilish kuchi?
194. Valikli jinlar o'rnatilgan bir batareyali zavodlarda nechta jin bo'ladi?
195. Valikli jinlar o'rnatilgan bir batareyali zavodlarda nechta jin bo'ladi?
196. VII tip tolaning chiziqli zichligi?.
197. Xom ashyodan tayyorlangan mahsulotga qarab baholash qanday ataladi?
198. Yer yuzida g'o'zaning necha turi mavjud?
199. Yopiq ombor shiyponlarda harorat necha joyda o'lchanadi?
200. Yopiq ombor shiyponlarda harorat necha metr chuqurlikda o'lchanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik. Omonov F.B. tahriri ostida. – T.: Voris, 2008.
2. Paxtani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi. Zikiryoev E.Z. taxriri ostida, Darslik – T.: Mexnat, 2002. - 437 b.
3. Zikiryoev E.Z. "Paxtani dastlabki qayta ishlash", Darslik – T.: Mexnat, 2002. - 320 b.
4. Yakubov M.M., va boshkalar. Paxtani tayyorlash va saklash texnologiyasi (ma'ruza matnlari). - T.: ToshDAU, 2002.
5. Jabborov G.J., Otametov T.O., Hamidov A.X. "CHigitli paxtani ishlash texnologiyasi" O'quv qo'llanma – T.: O'qituvchi, 1984. -172 b.
6. Usmonov G. "Paxta tolasi sanoati korxonalarida mehnatni muhofaza qilish va mehnat havfsizligini ta'minlash", O'quv qo'llanma. – T.: Islom universiteti, 2003. - 175 b.
7. Paxtani qayta ishlash atamalari va ta'riflari. O'zDST 581. 2002.
8. Spravochnik po Xlopkovodstvu. – T.: Uzbekistan, 1981. – 437 S.
9. Yakubov M.M., va boshqalar. Paxtani tayyorlash va saqlash texnologiyasi (ma'ruza matnlari). – T.: ToshDAU, 2002. -215 b.
10. Babadjanov M.A., Gapparova M.A., Ruzmetov M.E. - Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash. / uslubiy qo'llanma. TTESI, 149 bet.
11. Babadjanov M.A., Gapparova M.A., Ruzmetov M.E. – Tarmoq texnologiyasi va jixozlari. / o'quv qo'llanma. TTESI, 2012. 154 bet.
12. Babajanov M.A. - Texnologik jarayonlarni loyixalash. Toshkent «CHulpon», 2009, - 199 bet.
13. Salimov A.M - Tolani dastlabki ishlash texnologiyasi va mashinalari: / – Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2010. – 184 b.
14. Salimov A.M., Axmatov M.A. - Paxtaga dastlabki ishlov berish: / – Toshkent: «Bilim», 2005. – 176 b.
15. Xolmirzaev .K.I. – Tolali materiallarga birlamchi ishlov berish. T. Ilm Ziyo. 2007. 96 b.
16. Hojiev M.T., Hamroeva S.A., Salimov A.M. - Tola sifatini aniqlash: / T.: O'MKHTM, «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006. - 192 bet.

Elektron resurslar:

http: //www gov.uz Uz Res xukumat portali
http: //www lex.uz Uz Res qonun xujjatlari ma'lumoti milliy ba'zasi
http: //www.ncbi .nlm.nih.gov
http://www. cotton technology - texnologiya xlopka sьirtsa.
http://www. cotton technology – texnologiya xlopka sьirtsa.
http://www. cotton storage technology – texnologiya xraneniya xlopka sьirtsa.
http://www. O'zpaxtasanoat.uz – O'zbekiston paxta sanoati sayti.

3. "Donni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" fanidan YaDAK savollari

1. Jahondagi ekin maydonlarning necha foizini g'alla va don-dukkakli ekinlar tashkil etadi?
2. Hozirda don mahsulotlarini saqlashdagi nobudgarchilik necha foizni tashkil qiladi?
3. Qadimda O'rta Osiyoda g'isht bilan terilgan 11 ta xonaning biridan ikkita un massasi qoldiqlari mavjud loydan qilingan xampa qaysi qal'a qoldiqlaridan topilgan?
4. 1906-1909 yillarda Toshkentda 1-un zavodi qoshida sig'imi necha tonna bo'lgan elevator qurilgan?
5. 1870 yilda hozirgi O'zbekiston hududida kepakli jaydari un tortiladigan nechta tegirmon bo'lgan?
6. 1956 yilda O'zbekistonda «O'zdontayyorlov» negizida tuzilgan Respublika don mahsulotlari vazirligi qanday tashkilotga aylantirildi?
7. Hozirgi vaqtda «O'zdonmahsulot» korporatsiyasi tarkibida har xil turdagi turli xil navli un va manniy yormasi ishlab chiqaradigan nechta ta zavod bor?
8. Hozirgi vaqtda «O'zdonmahsulot» korporatsiyasi tarkibida necha turdagi turli xil navli un va manniy yormasi ishlab chiqaradigan zavodlar bor?
9. Don mahsulotlaridan olinadigan spirtdan qanday nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladi?
10. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida Farg'ona, Quva, Yangiyo'l un kombinatlari, Namangan, Andijon, Samarqand, Buxoro, Navoiy shaharlarida sutkasiga necha tonna quvvatga ega bo'lgan uch navli un tortadigan zavodlar qurildi?
11. Don olinadigan har bir o'simliklarning turli navlari bir-biridan ayrim belgilari bilan farq qiladi. Bug'doyda bu qaysi xususiyatlar.....?
12. Don olinadigan har bir o'simliklarning turli navlari bir-biridan ayrim belgilari bilan farq qiladi. Makkajo'xorida bu qaysi xususiyatlar.....?
13. Don olinadigan har bir o'simliklarning turli navlari bir-biridan ayrim belgilari bilan farq qiladi. Suli, arpa, guruch, tariqda bu qaysi xususiyatlar.....?
14. Don olinadigan har bir o'simliklarning turli navlari bir-biridan ayrim belgilari bilan farq qiladi. Kungaboqarda bu qaysi xususiyatlar.....?
15. Don olinadigan har bir o'simliklarning turli navlari bir-biridan ayrim belgilari bilan farq qiladi. Kanopda bu qaysi xususiyatlar.....?
16. Markaziy va Janubiy Afrikada pivo ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo manbai qaysi don turi hisoblanadi?
17. Xitoy, Yaponiya va Koreyada pivo va boshqa alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo manbai qaysi don turi hisoblanadi?
18. Donning urug'lik xossasiga qaysi xossalari kiradi?
19. Donning iste'molboplik xususiyatlariga qaysi xususiyatlari kiradi?
20. Don noqulay sharoitlarda namlanishi qanday holatlarga olib keladi?
21. Tashqi belgilari va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha bir xil bo'lgan don massasiga nima deyiladi?
22. Omborlarga kelib tushadigan don partiyalarining asosiy ko'rsatkichlariga qaysi ko'rsatkichlari kiradi?

23. Meva va urug'larning gullashda paydo bo'lishi turli vaqtga to'g'ri keladi. Bug'doy va javdar boshog'ining gullashi uning qaysi qismidan boshlanadi?
24. Meva va urug'larning gullashda paydo bo'lishi turli vaqtga to'g'ri keladi. Tariq va suli ro'vagining gullashi uning qaysi qismidan boshlanadi?
25. Meva va urug'larning gullashda paydo bo'lishi turli vaqtga to'g'ri keladi. No'xat va yembop dukkakli o'simliklarning gullashi uning qaysi qismidan boshlanadi?
26. Eng to'laqon don guldonning qaysi qismidan olinadi?
27. 1 tonna bug'doy doni uyumida necha dona bug'doy doni bo'ladi?
28. 1 tonna jo'xori doni uyumida necha dona jo'xori doni bo'ladi?
29. Ba'zi begona o't urug'laridagi qaysi ko'rsatkich don massasida mikroorganizmlar rivojlanishi uchun qulay muhit vujudga keltiradi?
30. Don massasi komponentlarining xossalari ikki guruhga bo'lib o'rganiladi. Bular qaysilar?
31. Don qaysi o'simliklarning mevasi hisoblanadi?
32. Bug'doy donining vazni necha foizni tashkil etadi?
33. Donlar kimyoviy tarkibiga ko'ra nechta guruhga bo'linadi?
34. Xalq xo'jaligida donlardan qaysi maqsadlarda foydalaniladi?
35. Tarkibida moy ko'p bo'lgan donlar asosan qanday maqsadda ishlatiladi?
36. Azotli moddalar standart talabiga muvofiq donlarda necha foiz bo'lishi kerak?
37. Uglevodlar don tarkibida necha foiz bo'lishi kerak?
38. Bug'doy doni tarkibidagi oqsil miqdori necha foizdan necha foizgacha o'zgarib turadi?
39. To'liq pishib yetilgan don tarkibida shakarlar necha foiz atrofida bo'ladi?
40. Arpa doni tarkibida necha foiz suv bo'ladi?
41. Don va urug'larning ko'pchiligi uchun unuvchanlik darajasi necha foiz bo'lishi shart?
42. Bug'doy doni vaznining necha foizi endosperma hisoblanadi?
43. Bug'doy donining aleyron qavati necha foizni tashkil qiladi?
44. Bug'doy donining necha foizini po'st va murtagi tashkil etadi?
45. Yetishtirish usullariga, ayrim morfologik va biologik xususiyatlariga ko'ra, don ekinlari necha guruhga bo'linadi?
46. Sistematikasiga, morfologik va biologik xususiyatlariga ko'ra, don ekinlari guruhga bo'linadi?
47. Qo'llanilish maqsadiga ko'ra, don ekinlari guruhga bo'linadi?
48. Davlat standartida don partiyasi namligi quruq holatda bo'lganda necha foiz namlikda bo'ladi?
49. Davlat standartida don partiyasi namligi ho'l holatda bo'lganda necha foiz namlikda bo'ladi?
50. Davlat standartida don partiyasi namligi o'rtacha quruq holatda bo'lganda necha foiz namlikda bo'ladi?
51. Davlat standartida don partiyasi namligi nam holatda bo'lganda necha foiz namlikda bo'ladi?
52. Don tarkibida erkin suv hosil bo'lish darajasi nima deb ataladi?
53. Don va dukkakli don ekinlari doni namligi qanday aniqlanadi?

54. Bug'doy massasida javdar va arpa donlari qanday aralashmalarga kiritiladi?
55. Bug'doy massasida makkajo'xori yoki suli donlari qanday aralashmalarga kiritiladi?
56. Don tarkibidagi iflos aralashmalar qanday aralashmalarga bo'linadi?
57. Don tarkibidagi begona aralashmalar qanday aralashmalarga bo'linadi?
58. Davlat standartida nimalar bilan zararlangan don massasi konditsiyasiz, ya'ni ishlatishga yaroqsiz hisoblanadi?
59. Bug'doy natura og'irligining bazis konditsiyasi mamlakatimiz uchun qancha qabul qilingan?
60. Donning natura og'irligini aniqlaydigan metrik purkalar necha litrlik bo'ladi?
61. Nima uchun donning po'sti donga qaraganda kamroq qimmatga ega bo'ladi?
62. Bug'doy donining necha foizini po'st va murtagi tashkil etadi?
63. Arpa donining po'stliligi necha foizgacha bo'ladi?
64. Suli donining po'stliligi necha foizgacha bo'ladi?
65. Sholi donining po'stliligi necha foizgacha bo'ladi?
66. Tariq donining po'stliligi necha foizgacha bo'ladi?
67. Donning shishasimonligi qanday asboblar orqali aniqlanadi?
68. Donning namligi qanday asboblar orqali aniqlanadi?
69. Donning po'stliligi qanday asboblar orqali aniqlanadi?
70. Don massasining to'kiluvchanligi deb nimaga aytiladi?
71. Don massasining ishqalanish burchagi deb nimaga aytiladi?
72. Don massasining to'kilishdagi qiyalik burchagi deb nimaga aytiladi?
73. Don massasining g'ovaklik miqdori deb nimaga aytiladi?
74. Arpaning to'kilish tabiiy qiyaligi qancha bo'ladi?
75. Tariqning to'kilish tabiiy qiyalik burchagi qancha bo'ladi?
76. Gaz, bug', namlik va erigan moddalarning don massasida yutilishi nima deb yuritiladi?
77. Don massasidan gaz, bug', namlik va erigan moddalarning chiqarilishi nima deb yuritiladi?
78. Don massasi va havo suv bug'i bosimining teng bo'lishidagi namlik darajasi nima deyiladi?
79. Don massasining haroratini 1°C ga oshirish uchun kerak bo'ladigan issiqlik miqdoriga nima deyiladi?
80. Shar shaklidagi donlarga qaysi donlar kiradi?
81. Yumaloq shaklidagi donlarga qaysi donlar kiradi?
82. Uzunchoq oval shaklidagi donlarga qaysi donlar kiradi?
83. Uzunchoq shaklidagi donlarga qaysi donlar kiradi?
84. Ayrim donlarda yadro va qobiq orasida bo'shliq bo'ladi, bu esa donlarning qaysi xususiyatini kamaytiradi?
85. Don yirikligi ortishi bilan qaysi xususiyati ortadi?
86. Don yirikligi ortishi bilan qaysi xususiyati kamayadi?
87. Bug'doy, javdar namligi ortishi bilan qaysi xususiyati kamayib boradi?
88. Loviya donining 1000 ta don massasi qanchadan-qanchagacha bo'ladi?
89. Kungaboqar donining zichligi necha g/sm^3 ni tashkil etadi?

90. Nafas olish jarayonida ajralib chiqqan karbonat angidridning yutilgan kislorodga nisbati nima deb yuritiladi?
91. Nafas olish jarayonida don tarkibidagi uglevodlarning boshqa bir moddaga aylanishi qanday jarayon deyiladi?
92. Don massasida harorat necha gradusga yetganda oqsil denaturatsiyasi boshlanadi?
